

## **NIDERLANDIYA TA'LIM TIZIMI**

*Yakubova Sitora Sharifovna*

*BMTI akademik litseyi yetakchi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bugungi kunda ilg'or hisoblangan Niderlandiya ta'lismi tizimining uzviyligi va uzlucksizligi, ta'lism bosqichlari ketma-ketlikda bat afsil bayon qilingan. Unda, jumladan, Niderlandiya ta'lism jarayonining integratsion xususiyatlari, yo`nalishlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Ta'lism tizimi, ta'lism turlari, diniy maktab, individual ta'lism, hamkorlikda o`qitish, sun`iy intellekt.*

Jahonda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalarni, raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida samarali foydalanish keng tadbiq etilayotgan bugungi kunda, pedagog kadrlar tayyorlashdagi muammolar inson kapitali sifatining o'sishini susayishiga sabab bo'lmoqda. Pedagogika oliygohi bitiruvchisi, nafaqat fuqarolarni bilimli qilib tayyorlash va mamlakat inson kapitalini shakllantirish, shu bilan birga mavjud o'qituvchilik qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish va keyingi avlodga uzatishda ham muhim bo'g'in hisoblanadi. Shu bilan birga oxirgi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida (iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ham) ta'lism tizimining barcha bosqichlarida yuqori malakali pedagog kadrlar tanqisligi kuzatilmoqda. Respublikamizda ham kadrlar bo'shlig'ini to'ldirish, shu jumladan, umumta'lim maktablarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish obyektiv zarurat. Ushbu masalalarini hal qilish mexanizmlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va ushbu ishning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Niderlandiya kichik mamlakat bo'lsada, lekin xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda faol ishtirok etadi. Hozirgi Birlashgan Millatlar tashkilotining o'tmishdoshi bo'lgan millatlar ligasi aynan birinchi bor Niderlandiyada tashkil

etilgan edi. Bu mamlakatda 1899, 1907-yillarda xalqaro tinchlik konferentsiyalarini bo'lib o'tgan. Hozir xalqaro arbitraj, xalqaro sud shu mamlakatning Gaaga shahrining Tinchlik saroyida joylashgan. Uning siyosati tinchlik siyosatidir. U xalqaro tinchlikni saqlash tashkilotlarining a'zosi, tinchlik forumlarining barchasida faol qatnashadi. U BMT, NATO, EES, Evropa Iqtisodiy Hamjamiyatining faol a'zosidir.

Niderlandiya ta'lismiz tizimlarining shakllanish davri 1789 yilda frantsuz revolyutsiyasi, ya'ni inqilobi natijasida paydo bo'lgan Bativ Respublikasi davriga to'g'ri keladi. Hozirgi paytda mamlakatning 75 foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, shu jumladan, xrestian yoki katolik cherkovlari tamonidan tashkil etilgan. Bu mamlakatda ta'lismiz 7-3-2 shakldadir. Boshlang'ich ta'lismiz maktabgacha tarbiya bilan qo'shilgan.

Uning shakli quyidagi bosqichdadir:

1. boshlang'ich ta'lismiz;
2. o'rta ta'lismiz;
3. maxsus ta'lismiz;
4. oliy ta'lismiz;
5. chet elliklar uchun ta'lismiz.

Boshlang'ich ta'lismiz Boshlang'ich maktab 4-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan. Bolalar 4-5 yoshlarida maktabga keladilar. Boshlang'ich sinflarda o'qish haftasiga 5 kun. Bolalar 8 dan 15 gacha maqtabda bo'ladilar. Mashg'ulotlar o'yin shaklida amalga oshiriladi, dars soatlari chegaralangan emas. Golland maktablarida 15, 20, 30, 40 minutlik darslari o'tiladi. Soat 12 dan 13.30 gacha tushlik tanaffus. Bu paytda bolalar uylarida ovqatlanib keladilar. O'qituvchilar uchun tushlikda 45 minut tanaffus beriladi. Mashg'ulotlar aksariyat potok bo'yicha amalga oshiriladi. Bu mamlakatda 4 yoshdan kichik bolalar uchun o'quv-tarbiya muassasalari yo'q. Bolalar yaslilari ham bor, lekin ular ta'lismiz vazirligi tasarrufida emas. Boshlang'ich maktabning dastlabki ikki yili o'quv o'yin rejasida bolalarni o'qishga, yozishga, hisoblashga, rasm solishga, qo'l mehnatiga o'rgatish ko'zda tutilgan. O'quvning keyingi 6 yillik bosqichida bolalarga niderlaid tili, matematika, yozuv, tarix,

gsografiya, fizika, jamiyatshunoslik fanlaridan dars o'tiladi. Maxsus maktablarda ilohiyot darslari o'qitiladi. Boshlang'ich maktab o'quvining so'nggi bosqichida bolalarga ingliz tilidan dars beriladi. Boshlang'ich sinfni bitirganlik haqida o'quvchilarga maxsus hujjat berilmaydi. Bolaning boshlang'ich maktabdagi bilimi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga qarab ota-onalar o'rta maktabni tanlaydilar.

Niderlandiya maktablarida o'rta ta'lim:

- umumiyl o'rta ta'lim;
- umumiyl ilmiyl o'rta ta'lim;
- hunar-texnika ta'limi va hokazolardan tashkil topgan.

O'z navbatida umumiyl o'rta ta'lim o'qish muddati 4 yil bo'lган o'rta va o'quv muddati 5 yil hisoblangan oliy bosqichga bo'linadi. Tayyorlov bosqichi hisoblangan ilmiyl o'rta ta'lim ham ikki ko'rinishga ega: gimnaziya va atensum deb ataladigan tipga bo'linadi. Har ikki ko'rinishda ham o'qish muddati 6 yil.

Tayyorlov ilmiyl o'rta ta'lim oliy ilmiyl o'quv yurtlariga kiruvchilarni etishtirib chiqaradi.

Hunar-texnika (ularda hunar-texnika) ta'limi quyi hunar-texnika ta'limi, o'rta va oliy hunar-texnika ta'limidan iborat uch bosqichdan iborat. O'quvchilar o'quv yurtlariga kirish uchun topshiradigan sinovlari ularning qaysi bosqich o'quv yurtlariga kirish xohishi va albatta shunga munosib bilim darajasiga qarab belgilanadi. O'rta ta'lim bosqichi o'quvchilarga o'rta hunar-texnika bilim yurtlariga, oliy tip o'rta maktablari esa oliy toifa hunar-tsxnika bilim yurtlari hamda tayyorlov ilmiyl o'quv muassasalarining bitiruvchilariga universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtiga kirib o'qish imkoniyatlarini beradi.

Hunar-texnika ta'limi o'z kasb yo'naliishiga ko'ra quyida-gicha ko'rinishda:

- qishloq xo'jalik ishlari ta'limi;
- iqtisodiyot va ma'muriy ta'lim;
- texnik ta'lim;
- maishiy xizmat va tibbiyot ta'limi;
- ro'zg'or yuritish, xalq hunarmandchiligi ta'limi;
- savdo o'rta ta'limi;

- dengizchilik o'quv yurti va hokazo.

Niderlandiyada yoshlar 16 yoshga to'lgunga qadar o'qishga majbur. Shundan keyin olingan kasb yo'naliшlarini yanada takomillashtirish, yuqori malakaga ega bo'lish uchun o'qishlar yana ikki yil davom ettiriladi. Bunday holda o'quvchi haftaning bir yoki ikki kunida o'qishda bo'lsa qolgan kunlari ishda bo'ladi. Ta'lim standartlari deganda, gollandiyalik ta'lim mutaxassislari reja va dasturlarni tushunadilar. Niderland maktablari faqat ta'lim bilan shug'ullanadilar. Maktablarda oshxonalar va bufetlar yo'q. Maktablarda ovqatlantirish, qonunbuzarlikni oldini olish ishlari bilan asosan oila, jamoat tashkilotlari mashg'uldirilar. Maktablarda 60-70 foiz o'zlashtirishni normal holat deb hisoblaydilar. Qolganlari bo'sh yoki o'zlashtirmovchi o'quvchilardir. Bizning tushunchamizdek, «ikkichilar» Niderlandiyada yo'q.

Niderlandiyada yoshlar oliy ta'limni universitet va oliy hunar-ta'limi bilim yurtlarida oladilar. Hozir mamlakatda 8 universitet va 5 ta oliy o'quv yurti ishlab turibdi. Leyden universiteti eng to'ng'ich oliy o'quv yurti hisoblanib 1575 yilda Vilgelm Oranskiy tomonidan tashkil etilgan. Barcha universitetlar va oliy o'quv yurti davlatnikimi yoki xususiyligidan qat'iy nazar, rivojlanish nuqtai nazaridan bab-barobar imkoniyatga va statusga egadirlar. Oliy o'quv yurtlari davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi. Niderlandiyada 7 ta diniy oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ular qisman davlat tomonidan va qisman diniy muassasalar tomonidan ta'minlanadi. Oliy o'quv yurtlarida o'quv ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich 4 yil, zarur bo'lsa 6 yil davom etadi. Mazkur bosqich ta'limi tugagach, bitiruvchilar fan nomzodilik darajasi uchun imtihon topshiradilar.

Oliy o'quv yurtlarining ikkinchi bosqichiga cheklangan miqdordagi qobiliyatli talabalar o'tkazilib 2-3 yil davomida doktorlik ilmiy darajasi uchun dissertatsiya yozadilar va himoya qiladilar.

Oliy hunar-ta'limi quyidagi shaxobchalarga bo'linadi:

- oliy iqtisodiy va ma'muriy ta'lim;
- uy-ro'zg'or va xo'jalik yuritish oliy ta'limi;
- oliy qishloq xo'jalik ta'limi;

- oliy savdo ta'limi;
- oliy ijtimoiy-pedagogik ta'lim;
- oliy tibbiy ta'lim;
- oliy texnik ta'lim;
- oliy badiiy ta'lim;
- oliy pedagogik ta'lim.

Chet elliklar ta'limi Niderlandiyada chet el fuqarolarining bilim olishga mo'ljallangan maxsus o'quv yurtlari ham bor. Bunday o'quv yurtlarga oliy ma'lumotli chet el fuqarolari maxsus bilimlar berish uchun qabul qilinadi. Bu erda o'qishlar ingliz tilida olib boriladi. Bunday universitetlarni mablag' bilan ta'minlash qisman davlat, qisman chet el fuqarolari hisobidan bo'ladi. Katta yoshdagilar ta'limi Hozirgi paytda Niderlandiyada katta yoshli fuqarolarning bilim olishga qiziqishi ortib bormoqda. Aksariyat bu toifadagi kishilar ilgari turli sabablar bilan ta'lim olishga imkoniyatlari bo'lмаган kishilardir. Mana shunday kishilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini qondirish uchun mamlakatda ochiq maktablar, ochiq universitetlar tashkil etilgan. Bu o'quv muassasalarida o'quv mashg'ulotlari mustaqil yoki ishidan so'ng amalga oshiriladi.

Katta avlodning, boshqaruv ishidagi mansabdlarning faoliyatida eng ko'zga tashlangan soha yoshlarning ishsizligini tugatish, ularga keng ko'lamdagi yordamlar uyushtirishga sidqidildan yondashayotganligidir. Niderlandiyada "Yoshlar ishlari bo'yicha federatsiya"si mavjud bo'lib, uning vazifasi hukumatda, parlamentda yoshlar manfaatini va ularning huquqlarini himoya qilishdan iborat. Niderlandiyada qariyib 4 mln. yoshlar kunduzgi o'qishga qamrab olingan.

Mamlakatda majburiy ta'lim pulsiz, katta yoshlilar maktablari va o'quv yurtlari pullikdir. Ba'zan maktablarda ota-onalar o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirishga o'z mablag'lari bilan yordamlashishga xohish bildiradilar. Bunday istaklar qabul qilinadi. Barcha o'qituvchilar va tarbiyachilar maoshlari davlat tomonidan ta'minlanadi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, ta'lim vazirligi Niderlandiyada eng qimmat turuvchi vazirlikdir. Unga davlat bir yilga 29,6 milliard golden mablag' sarf etadi. Bu davlat byudjetining 17 foizidir. O'qituvchi to'liq <https://scientific-jl.com/>

holda maosh olish uchun haftasiga 40 soat sarf etmog'i ksrak. Niderlandiyada erkaklar uchun ham ayollar uchun ham bir xil 65 yoshda pensiyaga chiqadilar. Pensiya miqdori oiladagi kishilar soniga qarab belgilanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldag'i "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori
2. Karimjonov A., Jabborova O. YAN AMOS KOMENSKY'S VIEWS ON EDUCATION //Ekonomika i sotsium. – 2021. – №. 5-2. – S. 977-983.
3. A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov, M.Axmedov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnama va tadqiqotning hisoboti. TALIS-2023 xalqaro tadqiqotiga O'zbekistondagi maktab o'qituvchilari va direktorlarini tayyorlash. 1-qism. T.: 2021. 72 bet
4. I.D.Frumin. Za chto v otvete? Kompetentnostnyy podxod kak estestvennyy etap obnovleniya soderjaniya obrazovaniya. //Uchitelskaya gazeta. – 2002 – № 36 – S. 38– 39.
5. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2004 yil.